



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

XORAZM VILOYATI AHOLISINI SIFATLI ICHIMLIK SUV BILAN TA’MINLASH MUAMMOLARI VA ULARNING BARTARAF ETISH CHORATADBIRLARI HAQIDA

Quranbayev S.B, Matyaqubov D.B
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Annotatsiya. Tibbiyotning yuqori darajada rivojlanganligiga qaramay, aholi o‘rtasida yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning ko‘payishi achinarli albatta. Bunga sabab bo‘layotgan asosiy omillar qatorida ichimlik suvining tutgan o‘rni katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Aytish joizki, ayrim rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ichimlik suviga bo‘lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Fuqarolarimizni sifatli ichimlik suvi bilan ta‘minlash, mavjud suv resurslarini sanitariya-gigiyena nazoratidan muntazam ravishda o‘tkazish aholi o‘rtasida mavjud kasalliklarning kamayishiga, qator kasalliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. xorazm viloyati, aholi, sifatli, ichimlik suv, ta‘minlash, muammolar, chora-tadbirlari.

ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ХОРАЗМСКОЙ ОБЛАСТИ КАЧЕСТВЕННОЙ ПИТЬЕВОЙ ВОДОЙ И МЕРЫ ПО ИХ УСТРАНЕНИЮ

Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии
Ниязметов М.А., Коранбаев С.Б. Кочкаров З.Р., Латипова Д.Б.

Аннотация. Несмотря на высокий уровень развития медицины, безусловно, вызывает сожаление рост инфекционных и неинфекционных заболеваний среди населения. Мы видим, что среди основных факторов, вызывающих это, большое значение имеет роль питьевой воды. Следует сказать, что спрос на питьевую воду в некоторых развитых и развивающихся странах растет с каждым днем. Обеспечение наших граждан качественной питьевой водой, регулярное санитарно-гигиеническое обследование существующих водных ресурсов будет способствовать снижению существующих заболеваний среди населения и предотвращению ряда заболеваний.

Ключевые слова. Хорезмская область, население, качество, питьевая вода, снабжение, проблемы, меры.

PROBLEMS OF PROVIDING THE POPULATION OF KHORAZM REGION WITH QUALITY DRINKING WATER AND MEASURES TO ELIMINATE THEM

Urgench branch of the Tashkent Medical Academy
Niyazmetov M.A., Koranbaev S.B. Kochkarov Z.R., Latipova D.B.

Annotation. Despite the high level of development of medicine, the growth of infectious and non-infectious diseases among the population is certainly regrettable. We see that among the main factors causing this, the role of drinking water is of great importance. It should be said that the demand for drinking water in some developed and developing countries is growing every day. Providing our citizens with high-quality drinking water, regular sanitary and hygienic inspection of existing water resources will help reduce existing diseases among the population and prevent a number of diseases.

Key words. Khorezm region, population, quality, drinking water, supply, problems, measures.

Mavzuning dolzarbligi: Orol dengizi sathining pasayishi 20-asrning ikkinchi yarmida Orol dengizi suv hajmining 90% yo‘qolishi va uning o‘rnida Orolqum cho‘lining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq antropogen-tabiiy ekologik ofatdir. Shu bilan birgalikda bu hududda yashovchi aholini toza ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojni qondirish, bu mintaqada yashovchi aholi o‘rtasida suvning mikrobiologik va kimyoviy ko‘rsatkichlarining keskin ravishda o‘zgarib borishi bilan kelib chiquvchi kasalliklarning sonining jadal surat bilan oshib borishi hozirgacha amalda o‘z yechimini topmagan muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Tibbiyotning yuqori darajada rivojlanganligiga qaramay, aholi



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

o‘rtasida yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning ko‘payishi achinarli albatta. Bunga sabab bo‘layotgan asosiy omillar qatorida ichimlik suvining tutgan o‘rni katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Aytish joizki, ayrim rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ichimlik suviga bo‘lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Fuqarolarimizni sifatli ichimlik suvi bilan ta‘minlash, mavjud suv resurslarini sanitariya-gigiyena nazoratidan muntazam ravishda o‘tkazish aholi o‘rtasida mavjud kasalliklarning kamayishiga, qator kasalliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda suvning gigienik holatini baholash va aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlashning global muammolarini o‘rganish maqsadida Xorazm viloyatidagi Urganch shahari, Bog‘ot tumani, Xiva tumani, Xonqa tumani, Urganch tumani hududlarida yashovchi aholining toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanganlik darajasini o‘rgandik.

Maqsad: Xorazm viloyati aholisini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlashdagi global muammolarni o‘rganish va bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbir etish.

Usul va uslublar: Xorazm viloyatida 5 ta tuman kesimida o‘rganildi. Sotsiologik va statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari: Xorazm aholisini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanganlik darajasini gigienik baholash maqsadida 2010-2023-yillar mobaynidagi ko‘rsatkichini o‘rgandik va bunga ko‘ra natijalar quydagicha: 2010-yil 63,6%, 2011-yil 63,6%, 2012-yil 63,4%, 2013-yil 62,9%, 2014-yil 66,6%, 2015-yil 67,5%, 2016-yil 58,6%, 2017-yil 42,5%, 2018-yil 41,6%, 2019-yil 40,2%, 2020-yil 40,6%, 2021-yil 40,9% , 2022-yil 40,1%, 2023-yil 39,7%.

Bundan tashqari aholining 80-90% qismi toza ichimlik suviga bo‘lgan kunlik ehtiyojini turli xildagi filtr apparatlaridan foydalangan holda qondiradi. Aholini sifatli suv bilan ta‘minlash uchun qurilgan quduqlarning 90% ishlamaydi. Ishlaydigonlari ham sanitar-gigienik jihatdan talablarga javob bermaydi. Aholining toza va sifatli ichimlik suvi bilan ta‘minlash muammolari o‘z o‘rnida bartaraf etilmaganligi uchun bu hududda yashovchi aholi orasidagi suv havzalarining mikrobiologik ko‘rsatkichlarida ham tub o‘zgarishlar paydo bo‘lgan. Bu esa suv orqali yuqadigon infeksiyon kasalliklarning aholi o‘rtasida sezilarli darajada ortishiga olib keldi. Biz bu muammoni ham o‘rganish maqsadida Viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasiga yuzlandik. Bu yerdan olgan tadqiqot natijalar quydagicha: Viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasida 2018-2023 yillar mobaynida aholini suv orqali yuqtirishi mumkin bo‘lgan o‘tkir ichak infeksiyalari, bakterial dizenteriya, yuqumli salmanelyoz, ich terlama, paratif A, B turlari bo‘yicha kasallanish darajasini tahlil qildik. Bunga ko‘ra aholining yuqorida sanab o‘tilgan kasalliklarni suv orqali yuqtirish ko‘rsatkichi 2018-yil 34% , 2019-yil 40% , 2020-yil 18% , 2021-yil 23% , 2022-yil 25% , 2023-yil 24% ni tashkil etadi.

Takliflar: Aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash uchun keng samardorlikka ega bo‘lgan texnik-texnologik, sanitar-texnik va tibbiy-profilaktik chora tadbirlarini amaliyotga tadbir etish. Belgilangan Davlat standarti talabiga asosan suv manbalari va bosh suv olish inshootlari atrofida sanitariya-muhofaza zonalarini to‘g‘ri tashkil qilish katta ahamiyatga ega. Unda suv olish joyi, vodoprovod inshootlariga ulanadigan joy ma‘lum qoidaga amal qilingan holda muhofaza qilinishi shart. Aholini markazlashgan vodoprovod suvi bilan ta‘minlanganlik darajasini oshirish chora-tadbirlarini yangicha usullarini yaratib, amaliyotga keng tadbir etish lozim. Sanoat va qishloq xo‘jaligida hosil bo‘layotgan chiqindi suvlarni samarali tozalash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, oqava suvlarni aholi foydalanadigon ochiq va yopiq suv manbalaridan uzoq masofada bo‘lishini nazorat qilish. Alohida joylashgan binolar kanalizatsiyasini yo‘nalishini ichimlik suvi o‘tgan tarmoqdan uzoqsa joylashganligini nazorat qilish. Yer osti suv havzalarini kimyoviy va sanitar ko‘rsatkichlarini o‘zgartiruvchi omillarni bartaraf etish va bu suvlardan foydalanishning zamonaviy, istiqbolli usullarini ishlab chiqish. Suv orqali yuqadigon infeksiyon kasalliklarning oldini olish maqsadida suvning sanitar ko‘rsatkichini hamisha nazoratda ushlash va zararsizlantirish usullarini ishlab chiqmoq kerak. Yuqori unumli biofiltr va aerofiltrlardan aholi orasida keng foydalanish darkor. Eng asosiysi suv havzalari ustidan Davlat sanitariya nazoratini o‘rnatish lozim.



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrası mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

Xulosa: Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib aytadigan bo’lsak, aholi orasida kasallanish ko’rsatkichi kun sayin ortib bormoqda. Bunga sabablardan biri tozalanmagan ichimlik suvini iste’mol qilish orqali kelib chiqadigan infeksiyon va noinfeksiyon kasalliklardir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining fikriga ko’ra suv orqali yuqadigan kasalliklar umumiy kasalliklarning 3,6% ini, yuqumli kasalliklarni 80% ini tashkil qiladi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlanmagan qatlamlarida suv orqali yuqadigan kasalliklar ko’p uchrashini guvohi bo’ldik. Bu kasallik ko’rastkichlarini kamaytirish uchun aholi o’rtasida targ’ibot va tashviqot ishlarini tizimli ravishda yo’lga qo’yish, ularga tozalanmagan ichimlik suvining zararlarini sodda, xalqona tilda tushuntirish ishlari yo’lga qo’yilishi kerak. Tozalanmagan ichimlik suvi orqali kelib chiquvchi kasalliklarni oldini olish uchun yana davriy tibbiy ko’riklardan o’tib turish ham maqsadga muvofiq. Yosh bolalar orasida sanitariya-gigiyena va sog‘lom ovqatlash qoidalarini targ’ib qilish va eng asosiysi aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Niyazmetov.M.A.Yusupova.O.B., Abdullayev.I.K. “MODERN FEATURES OF WATER SUPPLY TO THE POPULATION OF THE ARAL SEA REGION”. NATURALISTA CAMPANO ISSN: 1827-7160 Volume 28 Issue 1, 2024

2.M.A.Ниязметов. Оценка качества воды капарасского водохранилища с целью использования для водоснабжения / JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES Дата публикации: 03-05-2022. №: 2181-1385. С 69-75. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://ares/uz/osenka/osenka-kachestva-vodi-ka-parasskogo-vodahranilisha-s-selyu-ispolzovaniya-dlya-vodasrabjeniya>.Дата обращения:03.05.2022.

3.M.A.Ниязметов, А.А.Абдуллаев Влияние водного фактора на заболевания опорно двигательной системы / Texas Journal of Medical Science. Дата публикации: 11-05-2022. №: 2770-2936. С 6-9.[Электронный ресурс].Режим доступа: <https://zienjournalas.com/Influence-of-the-water-factor-on-diseases-of-the-locomotor>. Дата обращения: 11.05.2022.

4. Курбанов Б.Т. и др. Способ комплексной оценки качества речных вод. Государственное патентное ведомство руз. Предварительный патент № IDP 04390.

5.Modern Features of Water Supply to the Population of the Aral Region. World Journal of Agriculture and Urbanization Volume: 02 | No: 9 | Sep 2023 | ISSN: 2835-2866 <https://wjau.academicjournal.io/index.php/wjau>.

6.Niyazmetov.M.A, Qurbanbayev S.B “OROL BO’YI MINTAQASIDA EKOLOGIYANI OCHIQ VA YER OSTI SUV MANBALARIGA TA’SIRI”.ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ международный научный электронный журнал.29-son_1-to’plam_Yanvar-2024

7. Niyazmetov M.A., Kuranbaev S.B., Otaev L.,Matchanov M., Jumaniozov Zh., Umurzokov Z.,”DISEASES CAUSED BY CONSUMPTION OF UNPURIFIED DRINKING WATER”. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 4 APRIL 2024 ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ

8. Niyazmetov M.A., Kuranbaev S.B., Otaev L.,Matchanov M., Jumaniozov Zh., Umurzokov Z., THE PROVISION OF CLEAN DRINKING WATER IS AN IMPORTANT PART OF PEOPLE’S LIVES ”. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 4 APRIL 2024 ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ

9. Niyazmetov.M.A, Qurbanbayev S.B “ВЛИЯНИЕ ВОДНОГО ФАКТОРА НА ЗАБОЛЕВАНИЯ ОПОРОДВИГАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ” ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ международный научный электронный журнал.29-son_1-to’plam_Yanvar-2024



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

10. Niyazmetov.M.A, Quranbayev S.B “OROLBO'YI MINTAQASIDA SUVNING OSTEOXONDROZLAR KELITIRIB CHIQARISHDAGI AHAMIYATI” ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ международный научный электронный журнал.29-son_1-to'plam_Yanvar-2024

11.Niyazmetov.M.A, Quranbayev S.B “URGANCH SHAHARNI TOZALANGAN SUV BILAN TA'MINLASH” ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 29-son_1-to'plam_Yanvar-2024

12. Niyazmetov.M.A.Yusupova.O.B., Abdullayev.I.K. “MODERN FEATURES OF WATER SUPPLY TO THE POPULATION OF THE ARAL SEA REGION”. NATURALISTA CAMPANO ISSN: 1827-7160 Volume 28 Issue 1, 2024

13. Salomova F.I., Iskandarova Sh.T., Abdukadirova L.K., Sadullayeva X.A., Sharipova S.A, Axmadaliyeva N.O., Xasanova M.I. “Gigiyena. Tibbiy ekologiya”. Darslik. Toshkent. RIO-TMA, 2019-y

